XALQ DEPUTATLARI BULOQBOSHI TUMAN KENGASHI
QARORI

170500, Buloqboshi t., M.Ismoiliy ko'chasi 6-uy, Telefon: (74) 7732560 e-mail: buloqboshi@exat.uz

2022 - yil 31 - dekabr VI-62-127-1-20-K/22 Buloqboshi tumani hokimligi

2023 yil uchun Buloqboshi tumanining budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O’zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to’g’risida”gi O’RQ-813-son Qonuni, xalq deputatlari Andijon viloyati Kegashining “2023 yil uchun Andijon viloyatining mahalliy byudjetini tasdiqlash to’g’risida”gi VI-45-227-1-0-K/22-sonli qaroriga muvofiq hamda Andijon viloyati moliya Bosh boshqarmasining 2022 yil 30 dekabrdagi 01/01-38/433 -sonli xatini inobatga olib, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Buloqboshi tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O’zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to’g’risida”gi O’RQ-813-sonli Qonuni hamda xalq deputatlari Andijon viloyati Kegashining “2023 yil uchun Andijon viloyatining mahalliy byudjetini tasdiqlash to’g’risida”gi VI-45-227-1-0-K/22-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2022 yil dekabrdagi O‘RQ-813-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) hamda xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining qaroriga muvofiq, Buloqboshi tumani mahalliy budjetining 2023 yil uchun daromadlari 63.1 mlrd.so‘m, xarajatlari 189.1 mlrd.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 126.1 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023 yil uchun Buloqboshi tumani budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga, xarajatlari 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023 yil uchun tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023 yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2023 yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman mahalliy budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Buloqboshi tumani bo‘yicha G‘aznachilik bo'linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

7. 2023 yil uchun tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2023 yil uchun tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1.8 mlrd. so‘m miqdorida belgilansin.

Tumanlar va shaharlar budjetlarining 2023 yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar

tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida (bundan tuman budjeti jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag‘lari mustasno) 1,0 foizi miqdorida shakllantirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Tuman budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlar miqdori oshgan hollarda tegishli budjetlar zaxira jamg‘armalarining belgilangan miqdorlari qayta ko‘rib chiqilmaydi.

9. 2023 yilda soliqlarning quyidagi turlari:

a) tuman mahalliy budjetga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosida to‘lanadigan soliq, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat mulkini ijaraga berishdan tushumlar;

aylanmadan olinadigan soliq.

mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo ichimligi uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar 2022 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra, tuman aholisi sonining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq.

b) tumanning tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

foyda solig‘idan tushumlar (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari);

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tumanlar mahalliy budjetlariga o‘tkazilishi belgilangan tushumlar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

v) tuman mahalliy budjetlariga quyidagi ulushlarda:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning 50 foizi;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining 50 foizi;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 25 foizi o‘tkaziladi.

10. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Buvamatov, Moliya bo‘limi (A.Rasuljonov), Davlat soliq inspeksiyasi (Z.Oshiqov) birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlari rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tuman mahalliy budjetiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlari bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Z.Oshiqov)ga O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

Kadastr agentligi tuman bo‘limi (N.Qodirov) bilan birgalikda xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish hamda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning yer uchastkalari va mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini ta’minlasin.

12. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Z.Oshiqov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (N.Qodirov), Buloqboshi tumani ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi, “Sanoatgeokontexnazorat” Davlat inspeksiyasi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallari hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

13. Majburiy ijro byurosi Buloqboshi tumani bo‘limi (X.Masaitov)ga tuman davlat soliq inspeksiyasi (Z.Oshiqov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud qarzdorliklarni budjetga

undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

14. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (A.Tajimatov), jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

15. Tuman investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi (I.Razaqov):

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «E-IJRO Auksion” elektron savdo maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

16. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi tuman davlat soliq inspeksiyasi (Z.Oshiqov), tuman moliya bo‘limi (A.Rasuljonov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan 2023 yilning 1 iyuliga qadar 2022 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlar hisoblanishi hamda 2023 yilning 1 sentyabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

17. Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi tuman hokimligi bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

18. Tuman irrigatsiya bo‘limi (B.Xakimov) va tuman davlat soliq inspeksiyasi (Z.Oshiqov)ga tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

19. Tuman ichki ishlar bo‘limi (J.Qosimov), tuman yo‘l harakati xavfsizligi guruxi (I.Raimberdiyev), Davlat xizmatlari agentligi tuman bo‘limi (Y.Isaqulov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

20. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatish va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berish maqsadida monitoring qilish;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirib borsin.

21. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Buvamatov, tuman moliya bo‘limi (A.Rasuljonov)lar:

tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlari jami xarajatlarining (bundan tumanlar va shaharlar budjetlari zaxira jamg‘armasi mablag‘lari mustasno) 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m rejalashtirilishi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik

kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tuman hokimligining rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

22. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Buvamatov, xalq deputatlari tumani Kengashi kotibiyati, tegishli bo‘lim boshliqlari:

mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

23. Mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga va mahalliy gazetalarda joylashtirilsin.

24. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

25. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **O'.Mamurov**

Xalq deputatlari Buloqboshi tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-62-127-1-20-K/22-son qaroriga
1-ilova

Булоқбоши тумани маҳаллий бюджетларининг 2023 йилги асосий даромад кўрсаткичлари тўғрисида

МАЪЛУМОТ

№	Даромад тури	Жами
	Жами даромадлар	**63 054 570**
I.	**Рағбатлантирувчи (Стимулирующие) даромад**	**9 682 750**
	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	38 731 000
	ажратма меёри	*25*
1.	маҳаллий бюджетга	9 682 750
	Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи	5 040 000
	ажратма меёри	
2.	маҳаллий бюджетга	
II.	**Бириктирилган даромадлар**	**29 305 500**
	Туман ва шаҳарларга бириктирилган	**19 305 000**
1	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	929 000
2	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи (ИТД)	961 000
3	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	5 807 000
4	Ер ости бойликларидан фойдаланганлик учун солиқ норуда	6 487 000
5	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	4 957 000
6	Ижара тўловлари	164 000
	Вилоят ва туман (шаҳар)лар бюджетлари ўртасида тақсимланадиган даромадлар	**10 000 500**
1	Бензин, дизел ёқилғиси ва газ реализациясидан солиқ (АЗС)	7 063 000
	ажратма меёри	
	маҳаллий бюджетга	
2	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	1 752 000
	ажратма меёри	*50*
	маҳаллий бюджетга	876 000
3	Юридик шахслар ер солиғи	6 555 000
	ажратма меёри	*50*
	маҳаллий бюджетга	3 277 500
4	Ягона солиқ тўлови	5 347 000
	ажратма меёри	*100*
	маҳаллий бюджетга	5 347 000
5	Хусийлаштириш	1 000 000
	ажратма меёри	*50*
	маҳаллий бюджетга	500 000
6	Йиғимлар	1 055 000
	ажратма меёри	
	маҳаллий бюджетга	
	Вилоят бюджетига	
1	Давлат божлари	
2	Давлат ташкилотлари фойда солиғи	

3	Жарималар	
4	Бошқалар	
III.	**Тақсимланувчи даромадлар (формула бўйича)**	**24 066 320**
	Аҳоли сони (минг киши)	*148*
15.	Алкоголга акциз солиғи (шу жумладан пиво)	9 736 060
16.	Мобил алоқага акциз солиғи	4 176 200
17.	Тамаки маҳсулотларига акциз солиғи	10 154 060
	Маълумот учун: 2021 йил параметр	*51 897 520*
	ЖАМИ ХАРАЖАТЛАР	**189 125 220**
	ТРАНСФЕРТЛАР	**126 070 650**

Xalq deputatlari Buloqboshi tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-62-127-1-20-K/22-son qaroriga
2-ilova

Булоқбоши тумани маҳаллий бюджетларининг 2023 йилги асосий харажат кўрсаткичлари тўғрисида

МАЪЛУМОТ

	минг сумда
СОҲАЛАР	**2023 йил Бюджет жами**
Ижтимоий соҳа ва аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлашга харажатлар - жами	**147 022 164**
шу жумладан:	
Маориф	**20 245 819**
- мактабгача таълим	11 801 516
- умумий таълим	8 444 303
- кадрлар тайёрлаш	0
Соғлиқни сақлаш жами	**69 534 239**
соғлиқни сақлаш	69 534 239
тиббий-ижтимоий хизматлар учун харажатлар	0
Маданият ва спорт, оммавий ахборот воситалари	**6 596 003**
- маданият ва оммавий ахборот воситалари	1 675 918
- спорт	4 920 085
Фан	0
Болали оилаларга ва кам таъминланган оилаларга нафақалар ва компенсациялар	50 627 703
Озодликдан маҳрум этиш жазосини ўтаб бўлган фуқароларга «дастлабки ижтимоий-моддий ёрдам пакети»	18 400
Фуқароларга етказилган зарарни коплаш	0
Ижтимоий кўникма марказлари	0
Иқтисодиётга харажатлар	**13 445 503**
шу жумладан:	
Ички хўжалик автомобиль йўлларни таъмирлаш харажатлари	3 000 000
Ўсимликлар карантини инспекциялари харажатлари	0
Ободонлаштириш	7 200 045
Кўп хонадонли уй-жой фондига туташ ҳудудларни ободонлаштириш	0
Иссиқлик таъминоти тизими ташкилотлари харажатлари	0
Кўп квартирали уйлардаги лифт ускуналарини таъмирлаш ва янгилаш харажатлари	0
"Тоза ҳудуд" Давлат унитар корхонаси	0
Хўжайли ва Чалиш сув йўли техник участкаси	0
Иссиқлик таъминот корхоналарига субсидиялар	0
Сув хўжалиги вазирлиги ташкилотлари	1 177 433
Ўрмон хўжалиги ташкилотлари	0
Давлат экология қўмитасининг ҳудудий бошқармалари	0
Фермерлар хўжаликлари бухгалтерия марказлари	301 684
Пиллачилик ва қоракўлчиликни ривожлантириш қўмитасининг ҳудудий бўлимларини сақлаш харажатлари	0
Уй-жой коммунал хўжалиги вазирлигининг ҳудудий бўлимларини сақлаш харажатлари	0
Ветеринария қўмитаси	616 941
Суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш	0
Умум фойдаланишдаги автомобил йўлларини сақлаш ва эксплуатация харажатлари	0
Автобус йўналишларининг йиллик субсидиялаш харажатлари	0
Маҳаллий бюджетларда ҳоким ёрдамчиларининг тавсиялари асосида маҳалла инфратузилмасини яхшилаш учун	1 149 400
Марказлаштирилган инвестицияларни молиялаштиришга харажатлар	**0**
шу жумладан:	
Марказлаштирилган инвестицияларни молиялаштиришга харажатлар	0
Мактабгача таълим ташкилотларини реконструкция қилиш, мукаммал таъмирлаш ва жиҳозлаш	0
Умумтаълим мактабларини реконструкция қилиш, мукаммал таъмирлаш ва жиҳозлаш	0
Соғлиқни сақлаш муассасаларини реконструкция қилиш, мукаммал таъмирлаш ва жиҳозлаш	0
Мелиорация объектлари	0

Харажатлар - жами	**189 125 220**

Ичимлик суви ва канализация	0
Давлат бошқарув органларини сақлаш	**15 322 941**
шу жумладан:	
Давлат бошқарув идоралари	15 322 941
Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларини сақлаш	**2 640 517**
Заҳира жамғармаси	**1 782 085**
Фуқаролар ташаббуси жамғармаси	**8 912 010**
Бошқа харажатлар	**0**
шу жумладан:	
Маҳаллий бюджетдан молиялаштириладиган бошқа муассасалар ва тадбирлар	0
Адвокатлар хизмати	0
Қабуллар уйини сақлаш харажатлари	0
Чет эл кредитларини қоплаш	0
Президент мактабларини қуриш учун жалб этилган қарз маблағларини қайтариш харажатлари	0
ЖАМИ ДАРОМАДЛАР	**63 054 570,0**
ТРАНСФЕРТ	**126 070 650,0**

Xalq deputatlari Buloqboshi tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-62-127-1-20-K/22-son qaroriga
3-ilova

Булоқбоши тумани бўйича 2023 йил бюджет параметрлар тўғрисида

млн.сўмда

Т/р	Кўрсаткичлар	Миқдори
а	**Харажатлар миқдори, Жами**	**189 125 220,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	**189 125 220,0**
	шаҳар ва туманлар бюджетлари тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар	**0,0**
	Давлат ташқи қарзларини сўндириш	**0,0**
	Адвокатлар хизмати	**0,0**
	Давлат органлари ёки ушбу органлар мансабдор шахсларининг қонунга хилоф ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) натижасида фуқаролар ёки юридик шахсларга етказилган зарарни қоплаш харажатлари	**0,0**
	иссиқлик энергиясини ишлаб чиқарувчиларга аҳолига кўрсатилган иссиқлик таъминоти хизмати учун пасайтирилган тарифларни қўллаш натижасида юзага келадиган зарарни қоплаш харажатлари	**0,0**
	Тошкент вилоятида лифтларини алмаштириш харажатлари	**0,0**
	Йўл жамғармаси	**0,0**
	Давлат максадли жамғармалар	**0,0**
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	**0,0**
1	**Мактабгача таълим бошқармаси**	**11 801 516,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	11 801 516,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
2	**Халқ таълими бошқармаси**	**8 444 303,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	8 444 303,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
3	**Президент таълим муассасалари агентлиги**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
4	**Касбий таълимни ривожлантириш ва мувофиқлаштириш бошқармаси**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
5	**Соғлиқни сақлаш бошқармаси**	**69 534 239,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	69 534 239,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
6	**Маданият бошқармаси**	**1 883 668,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 883 668,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
7	**Жисмоний тарбия ва спорт бошқармаси**	**4 920 085,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	4 920 085,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
8	**Йўл ҳаракати эксплуатация ва монтаж бўлимлари**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
9	**Вилоят Маънавият ва маърифат маркази**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
10	**Уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш бошқармаси**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	иссиқлик энергиясини ишлаб чиқарувчиларга аҳолига кўрсатилган иссиқлик таъминоти хизмати учун пасайтирилган тарифларни қўллаш натижасида юзага келадиган зарарни қоплаш харажатлари	
	Тошкент вилоятида лифтларини алмаштириш харажатлари	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	

11	**Қишлоқ хўжалиги бошқармаси**	**676 342,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	676 342,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
12	**Ўсимликлар карантини ҳудудий инспекцияси**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
13	**Тиббий-ижтимоий хизматлар агентлигининг**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
14	**Ирригация тизимлари ҳавза бошқармаси**	**1 177 433,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 177 433,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
15	**Транспорт бошқармаси**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
16	**Пиллачилик ва қоракўлчиликни ривожлантириш қўмитасининг ҳудудий бўлимларини сақлаш харажатлари**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
17	**Экология ва атроф муҳитни ҳимоя қилиш бошқармаси**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
18	**Молия бош бошқармаси**	**1 332 292,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 332 292,0
	Давлат ташқи қарзларини сўндириш	
	Адвокатлар хизмати	
	Давлат органлари ёки ушбу органлар мансабдор шахсларнинг қонунга хилоф ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) натижасида фуқаролар ёки юридик шахсларга етказилган зарарни қоплаш харажатлари	
	шаҳар ва туманлар бюджетлари тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар	
	Йўл жамғармаси	
	Давлат максадли жамғармалар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
19	**Газначилик бошқармаси**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
20	**Пенсия жамғармасининг ҳудудий бошқармаси**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
21	**Ер ресурслари ва давлат кадастри бошқармаси**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
22	**Туризмни ривожлантириш бошқармаси**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
23	**Ўрмон хўжалик бошқармаси**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
24	**Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бошқармаси**	**616 941,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	616 941,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
25	**Монополияга қарши курашиш бошқармаси**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	

26	**Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш бошқармаси**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
27	**Давлат активларини бошқариш агентлиги ҳудудий бошқармаси**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
28	**Банклик ва меҳнат муносабатлари бош бошқармаси**	**581 986,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	581 986,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
29	**Қурилиш бошқармаси**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
30	**Инвестиция лар ва ташқи савдо бошқармаси**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
31	**Адлия бошқармаси**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
32	**Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш бошқармаси**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
33	**Ҳокимият**	**78 404 088,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	78 404 088,0
	шу жумладан:	
	Президент мактабларини қуриш учун жалб этилган қарз маблағларини қайтариш харажатлари	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
34	**Кабуллар уйи**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
35	**Халқ Депутатлари Кенгаши**	**193 684,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	193 684,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
36	**Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бошқармаси**	**3 267 720,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	3 267 720,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
37	**Ёшлар агентлиги ҳудудий бўлинмалари**	**3 795 497,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	3 795 497,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
38	**Хотин-қизлар бошқармаси**	**2 495 426,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	2 495 426,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
39	**Узбекистон Республикаси Кинематография агентлиги**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
40	**Агросаноат мажмуи устидан назорат қилиш инспекциясининг ҳудудий бошқармаси**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
41	**Сайлов комиссиялари**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	

	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
42	**Давлат архиви бошқармаси**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
43	**Бошқа ташкилотлар**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	

Xalq deputatlari Buloqboshi tuman Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-62-127-1-20-K/22-son qaroriga
4-ilova

2023 йил учун умумдавлат солиқлари ва мажбурий тўловлардан шаҳарлар ва туманлар маҳаллий бюджетларига ажратмалар меъёри*

Фоиз ҳисобида

Т/Р	Шаҳар ва туманлар номи	Фойда солиғи	Айланма-дан олинадиган солиқ	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Жисмоний шахслардан тегишли мол-мулкни ижарага беришдан оладиган йиллик даромад тўғрисидаги декларацияга асосида тўланадиган солиқ, шунингдек якка тартибдаги тадбиркорлар тўлайдиган жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Жисмоний шахслардан олинадиган мол-мулк солиғи	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ, бундан электр станциялари томонидан тўланадиган солиқ мустасно	Норуда қурилиш материаллари бўйича ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ	Бензинни, дизель ёқилғиси ва газни якуний истеъмолчиларга реализация қилишдаги акциз солиғи	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	Юридик шахслардан олинадиган ер солиғи	Йиғим-лар**	Давлат божлари**	Жарима-лар**	Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг улуши бўйича дивидендлар (даромадлар) ва ажратмалар	Давлат мулкини хусусийлаш-тиришдан олинган даромадлар	Ер участка-ларига бўлган ҳуқуқларни сотишдан тушган пул маблағлари	Давлат мулкини ижарага беришдан тушумлар	Бошқа (3450603, 3450721, 3450723, 3450725, 3450950, 3450951, 3511117, 3511700, 3710303 доромад кодлари бўйича) тушумлар
1	Булоқбоши тумани	0	100	25	100	100	100	100	100	0	50	50	0	0	0	0	50	50	100	100

*Мазкур иловада кўрсатилганидан ташқари қолган барча тушумлар вилоят бюджетига ўтказилади

**Давлат божлари, жарималар ва йиғимларнинг айрим турлари бўйича қонун ҳужжатларида белгиланган миқдорларда тегишли бюджетларга ажратма қилиниши мумкин